

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumatalibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdag'i yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муятдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda biznes jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish yoritilgan. Biznes jarayonlarini boshqarish bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari o'rganilan. Shuningdek, milliy sug'urta bozorining hozirgi holati, bozorning rivojlanganlik darajasini belgilovchi muhim statistik ko'satkichlar asosida tahlil qilingan, mazkur ko'satkichlar bo'yicha xorijiy mamlakatlar sug'urta bozorlari bilan taqqoslangan va shu asosda xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: tavakkalchilik, biznes jarayoni, sug'urta, sug'urta mukofoti, sug'urta qoplamasasi, moliyaviy barqarorlik.

MANAGEMENT OF BUSINESS PROCESSES IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE COMPANIES

Abstract: This article describes the proper organization and management of business processes in increasing the financial stability of insurance companies. The works of scientists who conducted research on business process management were studied. Also, the current state of the national insurance market was analyzed on the basis of important statistical indicators that determine the level of development of the market, compared with the insurance markets of foreign countries according to these indicators, and conclusions were made on this basis.

Key words: risk, business process, insurance, insurance premium, insurance coverage, financial stability.

УПРАВЛЕНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ

Аннотация: В данной статье описывается правильная организация и управление бизнес-процессами в целях повышения финансовой устойчивости страховых компаний. Изучены работы ученых, проводивших исследования по управлению бизнес-процессами. Также было проанализировано современное состояние национального страхового рынка на основе важных статистических показателей, определяющих уровень развития рынка, по сравнению со страховыми рынками зарубежных стран по этим показателям и на этой основе сделаны выводы.

Ключевые слова: риск, бизнес-процесс, страхование, страховая премия, страховое покрытие, финансовая устойчивость.

KIRISH

Sug'urta mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo'g'inidir, u tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, ishlab chiqarish jarayonidagi risklar va mulkiy yo'qotishlar riski yuqori bo'lgan boshqa kutilmagan hodisalarga bog'liq ravishda ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashga qodir, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan, iqtisodiyotda investitsion jarayonni barqarorlashtiradigan vosita hisoblanadi.

Mamlakatimizda sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va ko'plab mamlakatlarning o'sish ko'satkichlarini ortda qoldirmoqda. Ammo mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning rolini oshirish hamon yechilmagan vazifa bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida (2020): "Zamonaviy sug'urta xizmatlari yo'lga qo'yiladi", – deya e'tirof etildi. Bu esa, albatta, O'zbekiston sug'urta tizimini yangi, zamonaviylashgan va jahon standarlariga mos qilib rivojlantirishni, yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini jorish etishni talab qiladi. Sug'urta kompaniyasi tomonidan innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish orqali kompaniya ichki va tashqi sug'urta bozorida raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Shu bilan birgalikda, innovatsion texnologiyalarning sug'urta kompaniyasiga kirib kelishi kompaniyaning tashkiliy-boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion sug'urta biznesini tashkil etishning yangi usullarini qo'llash bilan bevosita bog'liqdir.



ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari xorijlik olimlar A. Kosenko, R. Brown, D. Cummins, S. Harrington, M. Hammer, J. Champy, W. Deming, T. Davenport, N. P. Nikolenko, L. M. Rabiner, T. V. Kugusheva va boshqalarning ilmiy ishlarida sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarini takomillashtirishning ayrim yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Dunyo olimlarining biznes jarayoniga oid qarashlari xilma-xilligi nuqtayi nazaridan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aynan biznes jarayonlari tashkilot faoliyatining uzviy bir bo'g'ini sifatida amalga oshirilgan mantiqiy o'zaro bog'liq harakatlar to'plami sanalishiga ko'ra, uning tizimdagи oqimi murakkab va o'zgaruvchandir.

1-jadval: Dunyo olimlarining biznes jarayoniga oid qarashlari

Mualliflar	Konsepsiya tarkibi
E. Deming	Tashkilotdagi har qanday faoliyat (operatsiyalar) biznes jarayonlarining bir bo'g'inidir.
M. Porter	Ishlab chiqarilayotgan xizmat/mahsulot tannarxi oshib boradigan subyekt (kirish va chiqish punktlari, interfeyslar va tashkiliy qurilmalar, shu jumladan, qisman xizmatlar/mahsulotlar iste'molchisining qurilmalari) biznes jarayonini tashkil etadi.
D. E. Shot	Ishbilarmenlik faoliyatining ma'lum bir natijasiga erishish uchun amalga oshirilgan mantiqiy o'zaro bog'liq harakatlar to'plami sanaladi.
M. Xammer	Bir yoki bir nechta turdagи resurslardan "kirish paytida" foydalilanligidan turli xil faoliyat turlari to'plami va ushbu faoliyat natijasida "chiqishda" iste'molchi uchun qiymatga ega bo'lган mahsulotdir.
T. Davenport	Muayyan iste'molchi yoki bozor uchun ma'lum bir xizmat (mahsulot) ishlab chiqarishga mo'ljallab tuzilgan cheklangan harakatlar to'plami. Yoki: kirish va chiqishning aniq ta'rifini, boshini va oxirini ko'rsatadigan vaqt va makondagi topshiriqlar yoki muayyan bir mijoz yoki bozor uchun ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan, tuzilgan, o'lchanadigan tadbirlar to'plamidir.
E. Oyxman	Bir yoki bir nechta ma'ilumotlardan boshlanib, mijozga xarajat, chidamlilik, xizmat ko'rsatish va sifat jihatidan uni talab qiladigan va qondiradigan mahsulotlarni yaratish bilan yakunlanadigan faoliyatning ichki bosqichlari (turlari) to'plami yoki mijozning biznesni boshlashi, boshqarishi va tugashini tavsiflovchi tizimdagи voqealar to'liq oqimi sanaladi.
E. Zinder	Korxonaning resurslarini yaqin kelajakda yoki o'lchanadigan darajada yaratish yoki olish uchun foydalananadigan o'zaro bog'liq faoliyatning mantiqiy ketma-ketligi hisoblanadi.
N. Abdikeev	Bu operatsiyalar tizimi sanaladi. Uning maqsadi tizimga kiritilgan operatsiyalarga xizmatlar ko'rsatish/ tovarlar ishlab chiqarish va yetkazib berish hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari – T. Iminov, M. Mirsodiqov, X. Sobirov, X. Shennayev, T. Baymuratov, A. Nurullayev, I. Abduraxmonov, U. Imomov, I. Kenjayev, S. Sherov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlari bo'yicha ishlab chiqilgan va chop etilgan ilmiy ishlanmalarda sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarining ayrim nazariy – amaliy jihatlari, xususan, mazkur faoliyatda biznes jarayonlarining mohiyati va ularni samarali boshqarish omillari yaxlit tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarini chuqur tadqiq etish dolzarbligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida guruhlash, qiyoslash, taqqoslash, sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta faoliyatida biznes jarayonlari (PQ-5265, 2021):

- a) sug'urta xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
 - hayotni sug'urta qilish tarmog'iga: majburiyatlarni ta'minlash uchun hayotni sug'urtalash, uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug'urtasi, kapitalni qaytarish bilan hayotni sug'urtalash;
 - umumiy sug'urta tarmog'iga: tibbiy sug'urta kabi yangi sug'urta xizmatlarini qo'shish orqali uni kengaytirish.
- b) sug'urtaning barcha tur(klass)larini elektron shaklda sotish va rasmiylashtirish qoidalarini, shuningdek, ularning haqiqiyligini tekshirish mexanizmlarini o'z ichiga olgan raqamli sug'urta xizmatlari ko'rsatilishini yo'lga qo'yish;
- d) jamiyatda sug'urta madaniyatini va aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish borasida sug'urta bozorining asosiy mexanizmiga aylanmoqda.



Biznes jarayonlari orqali sug'urta tashkiloti obyektlarni sug'urtalash, mijozlar bilan samarali munosabatlarni amalga oshirishadi. Sug'urta faoliyatida biznes jarayonlari o'zgaruvchan bo'lib, raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida doimo takomiltalab hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi va sug'urta foliyati samarali tashkil etilishida biznes jarayonlari ma'lum bir komponentlardan tashkil topadi.



1-rasm: Sug'urta foliyati samarali tashkil etilishida biznes jarayonlarining komponentlari (Abduraxmonov, 2021)

Biznes jarayonlari sug'urta xizmatini ko'rsatishning ishonchliligi va muqobilligi, moliyaviy resurslardan foydalanishning optimalligi, sug'urta himoyasi sug'urta to'loviga mutanosibligi va professional sug'urta xizmatini ko'rsatish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o'rni hozircha yetarli emas. Jumladan, bugungi kunda sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofoti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobar oshgan bo'lsa-da, sug'urta tushumi aholi jon boshiga 50 ming so'mdan to'g'ri kelgan.


Ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,4 foizni tashkil etmoqda. Qiyoq uchun, bu ko'rsatkich Janubiy Koreyada 11 foiz, Germaniyada 6 foiz, Rossiyada 1,5 foizni tashkil etadi.

Buning asosiy sabablaridan biri – sug'urta xizmatlari yetarli darajada jozibador emasligi. Misol uchun, o'tgan olti oyda umumiy sug'urta tarmog'iда 887 milliard so'm sug'urta mukofoti yig'ilgan bo'lsa-da, ushbu davrda mijozlarga to'langan sug'urta qoplamasining hajmi mukofotning atigi 11 foiziga to'g'ri kelgan. Dunyoda esa bu ko'rsatkich o'rtacha 50–60 foizdir.

Sug'urta bozoridagi kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyasining o'z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o'z mavqeyini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg'or sug'urta kompaniyalarining tajribalarini o'rganish va o'z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta'minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsiya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug'urtalanuvchilarni ko'proq jalb qilish va mavjud sug'urtalanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko'rinishdagi qo'shimcha xizmatlar va bonuslarni qo'llashga, sug'urtalanuvchi manfaatlarini ko'proq e'tiborga oluvchi sug'urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo'llashga majbur qiladi (Khaliqulova, 2020). Shunday harakatlarni o'zining faoliyat mazmuniga aylantirgan sug'urta kompaniyalarining milliy bozorda ko'payishi oxir oqibatda sug'urta lanuvchilar sonining ko'payishi, to'planayotgan sug'urta mukofotlarining sezilarli darajada oshishi va sug'urta lanuvchilar o'ttasida sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning ortishiga olib keladi.

Bugungi kunda kompaniya biznes jarayonlarining samarali qurilishi bozorda uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi.

Sug'urta kompaniyaning asosiy biznes jarayonlari quyidagilardan iborat:



2-rasm: Sug'urta kompaniyalarining biznes jarayonlari (Abduraxmonov, 2021)



Sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarining asosiy maqsadi xizmat ko'rsatishni takomillashtirish evaziga uning qamrovini oshirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining sug'urta xizmatlari bozorini chuqurlashtirish, rivojlantirish va isloh qilishga oid chora-tadbirlar yuzasidan qabul qilgan qarorlari natijasida 2022-yilga kelib 41 ta tashkilot, jumladan, 8 tasi hayotni sug'urtalash, 33 tasi umumiyligi sug'urta faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda. Jumladan, sug'urta bozorida 7 sug'urta brokeri, 5 ta aktuariy tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

2-jadval: O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi (imda. uz)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Sug'urta tashkilotlari soni, jami	30	36	40	42	41
shu jumladan:					
Umumiyligi sug'urta tashkilotlari	24	29	32	34	33
Hayot sug'urta tashkilotlari	6	7	8	8	8
Ixtisoslashtirilgan brokerlar	5	6	6	5	7
Aktuar tashkilotlar	4	4	5	5	5
Sug'urta mukofotlari (mlrd, so'mda)	1635,2	2313	2212	3733	6200
Sug'urta mukofotlarining YalMdagi ulushi, %	0,38	0,44	0,37	0,51	0,69
Sug'urta to'lovlari (mlrd, so'mda)	460,8	813,5	732	1235	2600

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4412-sun qarori sug'urta sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qaror bilan sug'urta bozorini rivojlanishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. 2019–2022-yillarda O'zbekiston respublikasi sug'urta bozorini jadal rivojlanishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berildi.

Sug'urta faoliyatida biznes jarayonlarining samarasini sifatida mamlakatimizning sug'urta xizmatlari bozorida nisbatan barqaror faoliyat yuritgan sug'urta tashkilotlari bo'yicha undirilgan sug'urta mukofotlarining umumiyligi ulush ko'rsatkichlari dinamikasi ishlab chiqildi va tahlil etildi (3-jadval).

3-jadval: O'zbekiston sug'urta bozorida umumiyligi sug'urta sohasida sug'urta mukofotlari to'g'risida ma'lumot (imda. uz)

Sug'urta kompaniyalari	Sug'urta mukofotlari, mln. so'm		
	2020	2021	2022
"Apex insurance" AJ	120 337	229 112	782 518
"O'zbekinvest" EISK AJ	262 869	385 385	930 534
"O'zagrosug'urta" AJ	178 203	260 975	323 286
"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	149 363	223 071	315 509
"Gross sug'urta kompaniyasi" AJ	251 773	343 817	296 858
"Alfa invest sug'urta kompaniyasi" AJ	97 295	156 314	301 867
Boshqa sug'urta kompaniyalari	819 506	1 397 032	1 721 698
Jami:	1 879 346	2 995 707	4 672 270

Sug'urta xizmatlari bozorida sug'urta mukofotlari hajmi bo'yicha keltirilgan yetakchi sug'urta tashkilotlarining ulush o'zgarishlari dinamikasi tahlili shuni ko'rsatdi, 2020–2022-yillarda "Apex insurance" AJda 2020-yilda sug'urta mukofotlari hajmi 120 337 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 782 518 mln. so'mgacha, ya'ni 5 barobardan ortiq summaga o'sgan. "O'zbekinvest" AJ sug'urta kompaniyasida ham sug'urta mukofotlari hajmi 2020-yilda 262 869 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 930 534 mln. so'mga, 3,5 barobardan ortishi hisobiga mazkur sug'urta tashkilotlarda barqaror o'sish kuzatilgan.

Sug'urta bozorida umumiyligi sug'urta sohasida jami sug'urta mukofotlari hajmi ham 2022-yilda 4 672 270 mln. so'mga sezilarli ravishda oshganligini tahlil qilishimiz mumkin. Bu esa sug'urta bozorini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o'z natijasini berayotganligidan dalolat beradi.



4-jadval: O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urta sohasida sug'urta mukofotlari to'g'risida ma'lumot (imda. uz)

Sug'urta kompaniyalari	Sug'urta mukofotlari, mln. so'm		
	2020	2021	2022
"New life sug'urta kompaniyasi" AJ	88 861	274 848	720 759
"Alfa life insurance" AJ	38 012	54 121	170 383
"Agros hayat sug'urta kompaniyasi" AJ	48 214	136 868	169 492
"Kafolat hayat insurance" AJ	18 399	65 737	146 516
"Euroasia life insurance" AJ	25 039	54 545	133 453
"O'zbekinvest hayat sug'urta kompaniyasi" AJ	86 758	80 754	101 577
"Apex life insurance" AJ	6 780	55 027	100 708
"Farovon sug'urta" AJ	5 897	14 417	16 567
Jami:	317 959	736 317	1 559 455

Shuningdek, sug'urta bozorida hayat sug'urta sohasida ham bugungi kunda 8 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda va ular ham sug'urta bozorida o'zlarining faoliyati bilan bozor rivoji uchun o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Sug'urta tashkilotlari samarali natijaga erishayotganliklari bilan izohlansada, boshqa jihatdan, ular tomonidan faoliyat samaradorligini oshirish choralarini ko'rish, shu jumladan, o'z biznes jarayonlarini takomil-lashtirishlari zarurligini ko'rsatmoqda.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib, mamlakatlar o'tasida savdo, turizm va boshqa sohalarda o'zaro munosabatlар kengayib borayotgan bugungi kunda sug'urta xizmatlari tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Ushbu tadqiqot sug'urta kompaniyalari o'tasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish masalasi sug'urta sohasining kengayishida, sug'urtalanuvchilarning sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchining ortishida va o'z o'rnda sug'urta xizmatlari bahosining pasayishi hamda sifatining ortishida muhim omil bo'lib xizmat qilishini asoslash, shu maqsadda sog'lom raqobat muhitini yaratish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqot quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi: sog'lom raqobat shakllanishining shart-sharoitlarini aniqlash; sug'urta sohasi rivojlangan mamlakatlarda sog'lom raqobat muhitining holatini aniqlash; O'zbekiston milliy sug'urta bozorida raqobat darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun sug'urta bozorida kuchli va sog'lom raqobatni shakllantirishga qaratilgan xalqaro darajadagi jurnallarda e'lon qilingan maqolalar va boshqa manbalar o'rganildi va ushbu manbalar va tajribalarga asoslangan holda O'zbekiston sug'urta bozoridagi mavjud holat hamda ushbu holatga ta'sir etuvchi qonunchilik tanqidiy jihatdan tahlil qilindi. Belgilangan maqsadga erishish maqsadida amalga oshirilgan tahlillarda turli moliyaviy koeffitsiyent va statistik usullardan, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Olib borilgan tahlillar natijasida sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarini taklif etayotgan sug'urta kompaniyalari o'tasida o'zaro raqobatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, raqobatning va, xususan, sog'lom raqobatning kuchayishiga olib keluvchi omillar, buning natijasida tarif stavaklarining pasayishi hamda xizmatlar sifatining ortishi, qo'shimcha xizmatlarning shakllanishi asoslangan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar va xulosalarga asoslangan holda muallif tomonidan O'zbekiston milliy sug'urta bozorida sog'lom raqobatni kuchaytirishda mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Xorijiy mamlakatlar sug'urta bozorlarini o'rgangan holda, O'zbekiston milliy sug'urta bozorida raqobatni kuchaytirishning muhim omillaridan biri sifatida chet mamlakatlarning ilg'or sug'urta kompaniyalari uchun ma'lum darajada ichki bozorni ochib berish masalasi ilgari surilgan. Yana bir olingan muhim natija sifatida milliy bozordagi sug'urta xizmatlarining yirik iste'molchilari tomonidan sug'urta kompaniyalarini tanlashda barcha sug'urta kompaniyalari ishtirot etish imkoniyati yaratilgan shaffof tanlovnii tashkil etish masalasidagi taklifi muhim yutuqlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday sohaning talab darajasida rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil bo'lib ushbu sohada yuqori darajada sog'lom raqobatning shakllanganligi hisoblanadi. Mazkur omil dunyoning ko'plab olimlari tomonidan asoslab berilganligi va xalq orasida ommaviylashib ketishi, uning isbot talab qilinmaydigan aksioma darajasidagi omil ekanligini e'tirof etish imkonini beradi. Ushbu holat sug'urta sohasiga ham birday tegishli bo'lib, sug'urta xizmatlarining hajmi va sifatini oshirmoqchi bo'lgan har qanday mamlakat asosiy e'tiborni ushbu masalaga qaratishi har jihatdan to'g'ri bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta bozoridagi kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyasining o'z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o'z mavqeyini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg'or sug'urta kompaniyalarining tajribalarini o'rganish va o'z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta'minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug'urtalanuvchilarni ko'proq jalb qilish va mayjud sug'urtalanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko'rinishdagи qo'shimcha xizmatlar va bonuslarni qo'llashga, sug'urtalanuvchi manfaatlarini ko'proq e'tiborga oluvchi sug'urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo'llashga harakat qiladi. Shunday harakatlarni o'zining faoliyat mazmuniga aylantirgan sug'urta kompaniyalarining milliy bozorda ko'payishi oxir oqibatda sug'urtalanuvchilar sonining ko'payishi, to'planayotgan sug'urta mukofotlarining sezilarli darajada oshishi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning ortishiga va bu orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisining Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi, 24.01.2020, <http://www.aza.uz>
2. Deming W. E. Quality, productivity, and competitive position. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study, 1982.–373 p.
3. Porter M. E., Millar V. E. How Information Gives You Competitive Advantage// Harvard Business Review, 1985. – p. 149–160.
4. Davenport T. H., Shot J. E. The New Industrial Engineering: Information Technology and Business Process Redesign // Sloan Management Review, 1990. – p. 11–27.
5. Hammer M., Champy J. Reengineering the Corporation: A manifesto for business Revolution. N-Y: Harper Collins, 1993. – 282 p.
6. Ойхман Е. Г., Попов Э. М. Рейнжириинг бизнеса: реинжириинг организаций и информационные технологии. М.: Финансы и статистика, 1997. – 336 с.
7. Зиндер Е. З. Новое системное проектирование: информационные технологии и бизнес-реинжириинг// Системы управления базами данных. 1996. №1. – с. 55-67.
8. Абдикеев Н. М., Данько Т. П., Ильдеменов С. В., Киселев А. Д. Рейнжириинг бизнес-процессов. – М.: Изд-во Эксмо, 2005. - 592 с.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrdagi PQ-5265-sون "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
10. Абдурахмонов И. Х. Теория и практика страхования. Учебник. – Т.: Iqtisod-moliya, 2021. – 696 с.
11. Khaliqulova, G. Prospects For the Introduction of Digital Technologies in the Insurance System of Uzbekistan, International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 1, Article 7.
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining www. imv. uz internet sahifasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagи "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloq qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sон qarori.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.